

MHXS ASOSIDAGI HISOBOTLAR FOND BIRJALARIGA KIRISHNING ASOSI

Guzal Djumayeva

SamISI, assistant-stajyor

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(MHXS)ga o'tishning zaruriyatlari, ahamiyatli tomonlari, fond bozorining elementlari, qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy kategoriya ekanligi, respublikamizda uning turlari, buxgalteriya hisobida qimmatli qog'ozlar hisobini aktivlar sifatida takomillashtirish masalalari o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** MHXS, investitsiya, qimmatli qog'oz, buxgalteriya hisobi, fond birjalari, tashqi qarz, xalqaro tashkilot.*

Butun dunyoda xalqaro savdo-sotiq, eksport va import operasialari hajmining oshishi, iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining globallasuv jarayoni jadallik bilan o'sib borishi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning hisob va hisobotlarini integrasiyalashuviga olib kelmoqda. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etilishi iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga, kengayishiga turtki bo'ladi. Jahon bozoriga chiqish, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro fond birjalarining listing tadbirlariga kiritish uchun, kotirovkalash uchun albatta korxonalardan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslangan hisobot ma'lumotlari talab etiladi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar iqtisodiyotning muhim elementi hisoblanib, ular yordamda investitsiya, to'lov, hisob-kitob va masalalar hal qilinadi. Qimmatli qog'ozlar iqtisodiy kategoriya sifatida ma'lum bir tomondan pul xususiyatiga ega boshqaruv vositasi hisoblanadi. Respublikamizda moliya bozorini rivojlantirish borasida samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Moliya bozorining

tarkibi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozori (fond bozori)ni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, respublikamizda Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4611-son Qarorning qabul qilinishi zahirida buxgalteriya hisobotlarini bosqichma-bosqich Moliyaviy Hisobning Xalqaro Standartlari (MHXS) talablariga moslashtirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu albatta xorijiy investorlarni respublikamiz fond bozoriga kirib kelishini rag'batlantiradi hamda bu boradagi moliyaviy instrumentlar aksiya, obligatsiya, veksel, depozit va jamg'arma sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan bo'g'liq munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Investorlarni jalb qilishning asosiy shartlaridan biri ularni qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar tannarx, likvidlik, rentabellik, muomala tezligi, investitsion salohiyat kabi iqtisodiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Qimmatli qog'ozlarning O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunda quyidagi turlari ko'rsatilgan: aksiyalar, obligatsiyalar g'azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari, qimmatli qog'ozlarning hosilalari, veksellar.¹ Qimmatli qog'ozlarning asosiy xususiyati shundaki, uning fond bozorida oldi-sotdi predmeti bo'lib xizmat qilishida ko'rinadi, ya'nikim qimmatli qog'ozlar bozorda erkin yoki ba'zi cheklovlar bilan muomalada bo'lib, kapitalning bir emitentdan(investordan) boshqasiga o'tkazishni taminlaydi. Qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy kategoriya sifatida ularni hisob va hisobotda aks etirishda quyidagi xususiyatlarini inobatga olish lozim:

- Qimmatli qog'ozlar ustav kapitalga egalik huquqini bildiradi;
- Qimmatli qog'oz egasi bilan emitent o'rtasida kredit munosabatlari aks ettiriladi;
- Qimmatli qog'oz(aksiya) emitent daromadining bir qismini olish huquqini beradi;

¹ O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun 2015 yil 03 iyun.

- Aksiya egalari aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi;
- Qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatining o'sishidan daromad olish imkoniyatini beradi;
- Qimmatli qog'ozlar kredit olishda garov funksiyasini bajara oladi;
- Qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsitsiya) korxonaga tugatilganda uning mulkidan ulush olish huquqini beradi.

Hozirgi kunda respublikamizda amalda bo'lgan hisobotlar foydalanuvchilar (investorlar)ning ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi, chunki hisob va hisobotlarga soliq hisobi nuqtai nazaridan yondashiladi. MHXS ga o'tish bir tomondan iqtisodiyotga nafi tegadi, ya'ni xalqaro moliya tashkilotlari hisoblangan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarni kengaytirib, iqtisodiyotga chet el investitsiyasini jalb etadi, mamlakatning investitsiyaviy muhitini yaxshilaydi. Shu bilan bir qatorda hisob ishlarini xalqaro darajaga ko'tarishda MHXS muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan MHXS lari asosida hisob yuritishdan davlat manfaatdor; o'z mablag'larining sarflanishi ustidan nazorat olib borishi, to'g'ri va ob'yektiv, shaffof ma'lumotlarga hech qanday qo'shimcha xarajatlarsiz ega bo'lishidan investor va ta'sischi manfaatdor, aks holda ular yana qo'shimcha mablag' sarflab hisobotlarni transformasiya qildirish xarajatlarini amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Va nihoyat, MHXS lari asosida tuzilgan hisobot ma'lumotlaridan foydalanish korxonaga boshqaruvida ob'yektiv menejmentlik qarorlarini, strategik rejalar qabul qilinishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar korxonalar MHXS lari asosida hisob va hisobot yuritishi quyidagilarni ta'minlaydi:

- korxonalar faoliyatidagi ma'lumotlarning ochiqligi, aniqligi, shaffofligi va konkretlashgan axborotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi;

- xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning investitsion jozibadorligini oshiradi;
- boshqaruv qarorlarining ob'yektiv, real qabul qilinishiga olib keladi;
- korxonalar faoliyatini tahlil qilishda imkoniyatlar kengayishiga yordam beradi;
- moliyalashtirishning raqobatbardosh resurslarini topishda yordam beradi.

Shuningdek, korxonalarning hisob siyosatida qimmatli qog'ozlar aktiv sifatida ularning kirimi, harakati, chiqib ketishi (sotilishi) tartibi yetarlicha yoritilishi;

MHXS va BHMSga asosan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning baholanishi qaysi baholarda yuritilishi, qayta baholanishi hisob siyosatida ko'rsatilishi lozim. Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bo'sh pul mablag'larini fond bozorida savdo faoliyatini rag'batlantirish va kengaytirishga yo'naltirish lozim. MHXS asosidagi hisobotlari ularning jahon bozoriga chiqishiga, respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalarga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga, investorlar ko'lamining kengayishiga va fond bozorining rivojlanishiga, shuningdek, kadrlar malakasini hamda hisob va hisobotlarni xarqaro talab darajasida yuritilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun 2015 yil 03 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun 2016 yil 13 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.
4. С.Н.Ташназаров "Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари" Тошкент "IQTISOD-MOLIYA" 2019.
5. <http://www.lex.uz> -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.
6. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
7. <http://www.norma.uz>
8. <http://mdl.ifrs.academy>
9. <http://spmmost.ru>
10. www.ifrs-professional.com